

RAQAMLI TRANSFORMATSIYA VA BARQAROR RIVOJLANISH SHAROITIDA AGRAR BOZOR TAHLILI

Ahmedov Shermuhammad Omonjon o'g'li

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

Mustaqil tadqiqotchi PhD

ORCID: 0009-0009-3469-3486

E-mail: shermuhammad9859@gmail.com

Annotatsiya

Mazkur maqolada jahon agrooziq-ovqat bozorlarining global iqtisodiyotdagi o'rnini, ularning aholi sonining o'sishi, urbanizatsiya va iste'mol tuzilmasidagi o'zgarishlar ta'sirida rivojlanish tendensiyalari tahlil qilinadi. Tadqiqot doirasida qishloq xo'jaligi va organik mahsulotlar bozorining o'sish dinamikasi, raqamli transformatsiya, sun'iy intellekt, IoT va "precision farming" texnologiyalarining ishlab chiqarish samaradorligiga ta'siri yoritiladi.

Shuningdek, O'zbekiston agroziq-ovqat sektorining ishlab chiqarish va eksport salohiyati, meva-sabzavotchilikning ustuvor yo'nalishlari, qayta ishlash, saqlash va logistika infratuzilmasidagi mavjud muammolar tahlil qilinadi. Maqolada xalqaro bozor talablariga moslashish, qo'shimcha qiymat zanjirini kengaytirish va barqaror rivojlanishni ta'minlash orqali 2030-yilgacha mamlakat agroziq-ovqat bozorining raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan asosiy strategik vazifalar va istiqbolli yo'nalishlar asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: agroziq-ovqat bozori, qishloq xo'jaligi, global bozorlar, raqamli qishloq xo'jaligi, precision farming, sun'iy intellekt, organik mahsulotlar, eksport salohiyati, qo'shimcha qiymat zanjiri, barqaror rivojlanish, O'zbekiston agroziq-ovqat bozori.

Аннотация

В данной статье анализируется роль мировых агропродовольственных рынков в мировой экономике и тенденции их развития под влиянием роста населения, урбанизации и изменений в моделях потребления. В исследовании рассматривается динамика роста рынков сельскохозяйственной и органической продукции, а также влияние цифровой трансформации, искусственного интеллекта, IoT и технологий "точное земледелие" на эффективность производства.

В статье анализируется производственный и экспортный потенциал агропродовольственного сектора Узбекистана, приоритетные направления в плодОВОЩЕВОДСТВЕ, а также существующие проблемы в переработке, хранении и логистической инфраструктуре. В ней также обоснованы основные стратегические задачи и перспективные направления, направленные на повышение конкурентоспособности агропродовольственного рынка страны к 2030 году. Это будет достигнуто за счет адаптации к требованиям международного рынка, расширения цепочки добавленной стоимости и обеспечения устойчивого развития.

Ключевые слова: агропродовольственный рынок, сельское хозяйство, мировые рынки, цифровое сельское хозяйство, прецизионное земледелие, искусственный интеллект, органическая продукция, экспортный потенциал, цепочка создания стоимости, устойчивое развитие, агроэкономика Узбекистана.

Abstract

This article analyzes the role of global agri-food markets in the global economy and their development trends influenced by population growth, urbanization, and changes in consumption patterns. The study examines the growth dynamics of agricultural and organic product markets, as well as the impact of digital transformation, artificial intelligence, IoT, and "precision farming" technologies on production efficiency.

The article analyzes the production and export potential of Uzbekistan's agro-food sector, priority areas in fruit and vegetable cultivation, and existing problems in processing, storage, and logistics infrastructure. It also substantiates the main strategic tasks and promising directions aimed at increasing the competitiveness of the country's agro-food market by 2030. This will be achieved through adaptation to international market requirements, expansion of the value chain, and ensuring sustainable development.

Keywords: agri-food market, agriculture, global markets, digital agriculture, precision farming, artificial intelligence, organic products, export potential, value chain, sustainable development, agro-economics of Uzbekistan.

KIRISH

Agrooziq-ovqat bozorlari jahon iqtisodiyotining strategik ahamiyatga ega tarmoqlaridan biri bo'lib, aholi sonining tez sur'atlarda o'sishi, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash zarurati hamda iste'mol talablarining o'zgarishi ushbu sohaning barqaror rivojlanishini taqozo etmoqda. So'nggi yillarda raqamli texnologiyalar, sun'iy intellekt va innovatsion ishlab chiqarish usullarining joriy etilishi agrooziq-ovqat bozorlarining tuzilmasi va faoliyat mexanizmlarini tubdan o'zgartirmoqda.

O'zbekiston qishloq xo'jaligi salohiyati yuqori bo'lgan mamlakat sifatida mintaqaviy va global agrooziq-ovqat bozorlarida o'z o'rnini mustahkamlash imkoniyatiga ega. Shu bilan birga, mahsulotlarni qayta ishlash, saqlash, logistika va eksport infratuzilmasini rivojlantirish bilan bog'liq muammolar mavjud. Mazkur maqolada jahon va O'zbekiston agrooziq-ovqat bozorlarining rivojlanish tendensiyalari tahlil qilinib, raqobatbardoshlikni oshirish va barqaror o'sishni ta'minlashga qaratilgan ustuvor yo'nalishlar yoritiladi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Agrooziq-ovqat bozorlarining rivojlanishi masalalari xalqaro va milliy ilmiy adabiyotlarda keng o'rganilgan. FAO hisobotlarida global oziq-ovqat tizimlarining transformatsiyasi, aholi o'sishi sharoitida ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va barqarorlikni ta'minlash masalalari asoslab berilgan. Jahon banki (World Bank) tadqiqotlarida qishloq xo'jaligi iqtisodiy o'sish va kambag'allikni qisqartirishda

muhim omil sifatida baholanib, qiymat zanjirlarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilgan.

OECD va McKinsey Global Institute tadqiqotlarida raqamli qishloq xo'jaligi, precision farming, sun'iy intellekt va IoT texnologiyalarining agroozziq-ovqat bozoridagi samaradorligi tahlil qilinib, ushbu texnologiyalar resurs tejamkorligi va hosildorlikni sezilarli darajada oshirishi isbotlangan. Organik mahsulotlar bozorining rivojlanishi bo'yicha Statista va Research and Markets (2024) ma'lumotlarida sog'lom ovqatlanishga bo'lgan talabning ortishi global bozor o'sishining asosiy drayveri sifatida ko'rsatiladi.

O'zbekiston olimlarining ilmiy ishlarida (Qodirov B.; Karimov A.) mamlakat agroozziq-ovqat bozorining xususiyatlari, meva-sabzavotchilik eksporti, qayta ishlash sanoatini rivojlantirish va logistika infratuzilmasini modernizatsiya qilish masalalari yoritilgan. Shuningdek, Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi hamda Statistika agentligi ma'lumotlari milliy agroozziq-ovqat sektorining hozirgi holatini baholashda muhim manba hisoblanadi.

Mazkur adabiyotlar tahlili agroozziq-ovqat bozorining raqobatbardoshligini oshirish innovatsiyalar, raqamli texnologiyalar va xalqaro standartlarga moslashuv bilan bevosita bog'liqligini ko'rsatadi.

METODOLOGIYA

Mazkur maqolada agroozziq-ovqat bozorlarining rivojlanish tendensiyalari va O'zbekiston agroozziq-ovqat sektorining istiqbollari baholash uchun kompleks yondashuv qo'llanildi. Tadqiqot jarayonida umumilmiy va maxsus iqtisodiy tadqiqot metodlaridan foydalanildi.

Xususan, tahlil va sintez metodlari orqali jahon va milliy agroozziq-ovqat bozorlarining tarkibiy o'zgarishlari hamda rivojlanish omillari aniqlandi. Statistik tahlil usuli asosida FAO, World Bank, OECD, Statistika agentligi va boshqa rasmiy manbalarning 2020–2025-yillardagi ma'lumotlari qayta ishlanib, ishlab chiqarish, eksport va bozor hajmlarining dinamikasi baholandi. Taqqoslama tahlil yordamida O'zbekiston ko'rsatkichlari yetakchi eksportchi davlatlar va mintaqaviy bozorlar bilan solishtirildi.

Shuningdek, prognozlash metodlari (trend va ssenariy tahlili) orqali 2030-yilgacha agroozziq-ovqat bozorining rivojlanish istiqbollari hamda eksport hajmlarining ehtimoliy o'sish yo'nalishlari belgilandi. Tadqiqotda tizimli yondashuv qo'llanilib, qiymat zanjiri, raqamli texnologiyalar va barqaror rivojlanish omillarining o'zaro bog'liqligi kompleks ravishda tahlil qilindi. Ushbu metodologiya olingan natijalarning ishonchliligi va ilmiy asoslanganligini ta'minlaydi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Agroozziq-ovqat bozorlari jahon iqtisodiyotining eng muhim segmentlaridan biri bo'lib, aholi sonining o'sishi, urbanizatsiya jarayonlari va iste'mol talablarining o'zgarishi natijasida doimiy ravishda o'zgarib bormoqda. Hozirgi kunda ushbu bozorlar an'anaviy savdo shakllaridan raqamli texnologiyalarga asoslangan zamonaviy tijorat tizimlariga o'tish bosqichida turibdi.

Jahon qishloq xo‘jaligi bozori 2024-yilda 12,12 trillion dollarni tashkil etib, 2025-yilda 12,97 trillion dollarga yetishi hamda 2029-yilga kelib 16,76 trillion dollargacha o‘sishi prognoz qilinmoqda. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishining umumiy qiymati 2025-yilda 4,70 trillion dollarni tashkil etishi va 2030-yilga kelib 5,73 trillion dollarga yetishi kutilmoqda.

So‘nggi yigirma yil ichida qishloq xo‘jaligi qiymati real jihatdan 89% ga o‘sib, 2022-yilda 3,8 trillion dollarga yetdi. Jahonda 570 milliondan ortiq fermer xo‘jaliklari mavjud bo‘lib, qishloq xo‘jaligi 2,5 milliarddan ortiq aholi uchun turmush manbai hisoblanadi.

Jahon aholisining 2050-yilga kelib 9,7 milliardga yetishi kutilayotgan sharoitda oziq-ovqat ishlab chiqarish va taqsimot tizimlarini takomillashtirish zaruriyati yanada kuchaymoqda. Bu esa agrooziq-ovqat bozorlarida yangi yondashuvlar, texnologiyalar va biznes modellarining paydo bo‘lishiga olib kelmoqda.

Zamonaviy agrooziq-ovqat bozorlari sun‘iy intellekt, katta ma‘lumotlar tahlili va IoT texnologiyalaridan foydalanish orqali sezilarli darajada o‘zgarmoqda. Elektron tijorat platformalari fermerlarga o‘z mahsulotlarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri iste‘molchilarga yetkazish imkonini bermoqda, bu esa oraliq zanjirlarni qisqartiradi va rentabellikni oshiradi.

Dunyo bo‘ylab sog‘lom turmush tarziga e‘tibor kuchayishi natijasida organik mahsulotlar bozori sezilarli sur‘atlarda o‘sib bormoqda. 2024-yil ma‘lumotlariga ko‘ra, jahon organik oziq-ovqat bozori 228,35 milliard dollarni tashkil etib, 2034-yilga kelib 658,38 milliard dollargacha o‘sishi prognoz qilinmoqda. AQShda organik mahsulotlar bozori 2024-yilda 71,6 milliard dollarga yetdi va umumiy oziq-ovqat bozoriga nisbatan ikki baravar tez o‘sib bormoqda. Mevalar va sabzavotlar organik mahsulotlar sotuvi hajmining 33% ini tashkil etadi. Iste‘molchilar kimyoviy o‘g‘itlar va pestitsidlarsiz yetishtirilgan mahsulotlarni afzal ko‘rmoqda.

O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi salohiyatiga boy mamlakat sifatida agrooziq-ovqat bozorida muhim o‘rin tutadi. Mamlakatda 3,4 million gektar sug‘oriladigan yerlar, qulay iqlim sharoitlari va boy qishloq xo‘jaligi an‘analari mavjud.

2024-yil statistik ko‘rsatkichlari:

- qishloq xo‘jaligi YaIMning taxminan 19% ini tashkil etdi;
- ishchi kuchining 24% i qishloq xo‘jaligida band;
- g‘alla ishlab chiqarish: 9 million tonna;
- paxta: 3 million tonna;
- sabzavot va poliz ekinlari: 16 million tonna;
- mevalar: 5 million tonna;
- kartoshka: 4 million tonna;
- go‘sht: 2,9 million tonna;
- sut: 12,4 million tonna.

2024-yil eksport ko‘rsatkichlari:

- qishloq xo‘jaligi mahsulotlari eksporti: 2,17 milliard dollar (22,4% o‘sish);
- meva va sabzavot eksporti: 2 milliondan ortiq tonna (1,5 milliard dollar qiymatida);

– asosiy eksport bozorlari: Rossiya (815,1 ming tonna, 632,9 million dollar), Qozog‘iston (520,5 ming tonna, 189,8 million dollar), Pokiston (26,6% ulush), Xitoy (9% ulush).

2025-yilning yanvar–sentabr oylarida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida 106,3% o‘shish qayd etildi. Yil yakunida ushbu tarmoqda o‘shish 4,4% ni tashkil etdi. Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligining kuzatilmaydigan (yashirin) iqtisodiyotdagi ulushi 69,4% ni tashkil etdi.

2025-yilda ishlab chiqarilgan mahsulotlar:

meva: 3,4 million tonna;

– uzum: 2 million tonna;

– sabzavot, poliz va kartoshka: 19,5 million tonna;

– dukkakli va moyli ekinlar: 1 million tonna.

160 ming gektar yangi bog‘ va tokzorlar barpo etildi, 1 milliard dollar qiymatidagi 1 500 ta oziq-ovqat loyihasi ishga tushirildi.

2025-yilda oziq-ovqat eksporti 37% ga o‘shib, 3 milliard dollarga yetdi va yil yakunida ushbu ko‘rsatkich ilk bor 3,2 milliard dollardan oshdi. 2025-yilning birinchi yarmida meva va sabzavot eksportining qiymati 40,5% ga o‘shib, 847,3 million dollarga yetdi, fizik hajmi esa 1,08 million tonnani (7,8% o‘shish) tashkil etdi. O‘zbekiston meva-sabzavotlari eksporti 18 ta yangi davlatga kengayib, jami 83 ta davlatni qamrab oldi.

Biroq bozor salohiyatidan to‘liq foydalanish uchun bir qator muammolarni hal etish zarur. Jumladan, zamonaviy saqlash inshootlarining yetishmasligi, qadoqlash standartlarining pastligi va logistika tizimini takomillashtirish zarurati mavjud.

Xom ashyoning qo‘shimcha qiymat zanjirida chuqur qayta ishlanishi mahsulotlarning raqobatbardoshligini oshiradi va eksport imkoniyatlarini kengaytiradi.

2025–2027-yillar uchun belgilangan maqsadlar:

– meva va sabzavotlarni qayta ishlash quvvatlarini 2024-yildagi 3,488 ming tonnadan 2027-yilda 4,480 ming tonnagacha oshirish;

– sovutish omborlari sig‘imini 2024-yildagi 1,306 ming tonnadan 2027-yilda 1,930 ming tonnagacha kengaytirish;

– 2025-yilda 40,8 million dollar qiymatidagi qadoqlash ishlab chiqarish loyihalarini ishga tushirish (2,1 million tonna meva va sabzavot uchun).

Xalqaro bozor talablariga mos sifat standartlariga rioya qilish, halol sertifikatlash tizimini joriy etish va geografik belgilar tizimini rivojlantirish orqali O‘zbekiston mahsulotlarining xalqaro bozorlardagi mavqeyini mustahkamlash mumkin. 2025-yil oxirigacha 30 turdagi yangi mahsulot uchun 8 ta mamlakatdan fitosanitar ruxsatnomalar olish rejalashtirilgan.

Raqamli qishloq xo‘jaligi konsepsiyasi zamonaviy agrobiznesning ajralmas qismiga aylanmoqda. “Precision farming” texnologiyalari orqali resurslardan samarali foydalanish, hosildorlikni oshirish va atrof-muhitga salbiy ta‘sirni kamaytirish mumkin.

Sun'iy yo'ldosh monitoring tizimlari, dronlar va aqlli sensorlar yordamida tuproq namligi, o'simliklar holati va kasalliklar haqida real vaqt rejimida ma'lumot olish imkoniyati mavjud. Ushbu ma'lumotlar asosida qabul qilinadigan qarorlar resurs tejamkorligini 25–30% ga oshirishi mumkin. Vertikal fermalar va gidroponika tizimlari shaharlarda oziq-ovqat ishlab chiqarishning istiqbolli yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu usullar suv sarfini 90% gacha kamaytiradi va yil davomida barqaror hosil olish imkonini beradi.

Iqlim o'zgarishi va tabiiy resurslarning cheklanganligi agrooziq-ovqat bozorlarini yanada barqaror rivojlanish yo'liga o'tkazishni talab etadi. Organik dehqonchilik, aylanma iqtisodiyot tamoyillari va qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish kelajak agrobiznesining asosiy yo'nalishlariga aylanmoqda.

Suv resurslaridan tejamli foydalanish O'zbekiston uchun alohida ahamiyatga ega. Tomchilatib sug'orish, mulchirovka va boshqa zamonaviy texnologiyalar suv sarfini sezilarli darajada kamaytirishi mumkin (1-jadval).

1-jadval.

Texnologik innovatsiyalarning samaradorligi¹

Texnologiya	Resurs tejamkorligi (foizda)	Hosildorlik o'sishi (foizda)	Kapital xarajat
Precision farming	25-30	15-20	Yuqori
Tomchilatib sug'orish	40-70 (suv)	20-30	O'rtacha
Vertikal fermalar	90 (suv)	100-400	Juda yuqori
IoT sensorlar	20-25	10-15	O'rtacha
Sun'iy intellekt	30-35	15-25	Yuqori
Texnologiya	Resurs tejamkorligi	Hosildorlik o'sishi	Kapital xarajat

Mintaqaviy va global qiymat zanjirlariga integratsiya milliy agrooziq-ovqat bozorining rivojlanishi uchun muhim omil hisoblanadi. Xalqaro standartlarga muvofiqlik, eksport bozorlari bilan uzviy aloqalarni yo'lga qo'yish hamda texnologiyalar transferi orqali raqobatbardoshlikni oshirish mumkin.

Jahon savdo tashkiloti, YEOII va boshqa xalqaro tuzilmalar bilan hamkorlik yangi bozorlarni ochish hamda savdo to'siqlarini kamaytirish imkonini beradi. Shuningdek, ilmiy-tadqiqot institutlari bilan xalqaro hamkorlik innovatsiyalarni joriy etish jarayonini jadallashtiradi (2-jadval).

2-jadval.

O'zbekiston meva-sabzavot eksporti bo'yicha asosiy bozorlar (2024)²

Mamlakat	Hajmi (ming tonna)	Qiymati (mln AQSH dollar)	Ulushi (foiz)
Rossiya	815,1	632,9	26,1
Qozog'iston	520,5	189,8	9,1
Pokiston	530,0	400,0	26,6
Xitoy	180,0	135,0	9,0
Boshqa davlatlar	770,0	142,3	29,2
Jami	2000+	1500+	100

¹ Muallif ishlanmasi

² Muallif ishlanmasi

Agrooziq-ovqat bozorining kelajagi texnologik innovatsiyalar, barqarorlik prinsiplari va raqamli transformatsiya atrofida shakllanadi. Yaqin 10–15 yil ichida zamonaviy texnologiyalarni qoʻllagan, ekologik talablarga javob beradigan va xalqaro standartlarga mos keladigan mahsulot ishlab chiqaruvchilar bozorda ustunlikka ega boʻladi.

2030-yilgacha asosiy prognozlar:

- Jahon qishloq xoʻjaligi bozori 2030-yilda 17,9 trillion dollarga yetishi kutilmoqda;
- Organik mahsulotlar bozori 2030-yilga kelib 400–450 milliard dollar hajmga erishadi;
- Raqamli qishloq xoʻjaligi texnologiyalaridan foydalanish 60–70% ga ortadi;
- Elektron tijorat orqali qishloq xoʻjaligi mahsulotlari sotuvining ulushi 15–20% ni tashkil etadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Oʻzbekiston uchun strategik vazifa — anʼanaviy qishloq xoʻjaligi salohiyatini zamonaviy texnologiyalar bilan uygʻunlashtirib, mintaqada yetakchi agrooziq-ovqat yetkazib beruvchi sifatida oʻz mavqegini mustahkamlashdir. 2030-yilga qadar mamlakat YaIMini 160–200 milliard dollargacha oshirish maqsadi qoʻyilgan boʻlib, qishloq xoʻjaligi bu jarayonda muhim rol oʻynaydi.

Oʻzbekiston uchun 2025–2030-yillar davridagi asosiy vazifalar:

- Meva-sabzavot eksportini 3,5 milliard dollardan 6–7 milliard dollargacha oshirish;
 - Qayta ishlash sanoatini modernizatsiya qilish va mahsulot qoʻshimcha qiymatini 40–50% ga oshirish;
 - Zamonaviy yigʻish va saqlash infratuzilmasini yaratish hamda mahsulot yoʻqotishlarini 35–40% ga kamaytirish;
 - Xalqaro sifat standartlari va sertifikatlash tizimlarini toʻliq joriy etish;
 - Raqamli qishloq xoʻjaligi texnologiyalarini keng koʻlamda qoʻllash.
- Buning uchun davlat siyosati, xususiyl sektor investitsiyalari va xalqaro hamkorlik uygʻunlashgan holda amalga oshirilishi zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI

1. FAO. The State of Food and Agriculture 2023. Rome: Food and Agriculture Organization of the United Nations, 2023.
2. FAO. Global Food Markets and Trade Developments. Rome, 2024.
3. World Bank. Agriculture and Food: Global Outlook. Washington, DC: World Bank, 2024.
4. OECD. Agricultural Outlook 2023–2032. Paris: OECD Publishing, 2023.
5. OECD. Digitalisation and Productivity in Agriculture. Paris: OECD Publishing, 2024.
6. McKinsey Global Institute. The Future of Agriculture: Technology, Sustainability and Growth. New York, 2024.
7. Statista. Organic Food Market – Global Outlook. Hamburg, 2024.

8. Research and Markets. Global Organic Food and Beverage Market Forecast 2024–2034. Dublin, 2024.

9. UNCTAD. World Investment Report 2024: Investment and Sustainable Food Systems. Geneva, 2024.

10. O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi. Qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat mahsulotlari bo‘yicha statistik to‘plam. Toshkent, 2024.

11. Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi. O‘zbekiston agrooziq-ovqat sektorining rivojlanish istiqbollari. Toshkent, 2024.

12. Qodirov B. Agrosanoat majmuasi iqtisodiyoti. Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti, 2022.

13. Karimov A. Qishloq xo‘jaligida eksport salohiyatini oshirish omillari. Toshkent, 2023.

14. O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi. Agrooziq-ovqat sohasini rivojlantirish bo‘yicha yillik hisobot. Toshkent, 2025.



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir:

Ingliz tili muharriri:

Rus tili muharriri:

Musahhih:

Sahifalovchi va dizaynerlar:

Xakimov Ziyodulla Axmadovich

Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich

Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li

Karimova Shirin Zoxid qizi

Sadikov Shoxrux Shuxratovich

Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2026-yil, yanvar, 1-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta:

info@marketingjournal.uz

Tel.:

+998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. GOCT 7.56-2002 " Seriyali nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlataro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**